

INTERPRETATION OF AMIR NASRULLAHKHAN PERSONALITY IN HISTORICAL SOURCES AND LITERATURE

Sobirov Jamshidbek

Andijan State University 3 course Student Of History Faculty

Abstract: the article talks about Amir Nasrullah Khan, the ruler of the Bukhara Emirate, and the interpretation of his personality in historical sources and literature.

Key words: Amir Nasrullah, Mangit dynasty, Amir Temur, Mirza Ulugbek, Alisher Navoi, Babur, Russia.

Introduction

Ma'lumki, 2006 yilning 1 iyun kuni Amir Nasrulloh tavallud topgan kunga roppa - rosa 200 yil to'ldi. 2010 yil 21 sentabrda esa Nasrullohxon vafot etgan sanaga 150 yil bo'ldi. Darvoqe, 2006 yil 12 dekabrda Buxoroda mang'itlar sulolasining rasmiy ravishda xonlik tepasiga kelganiga roppa-rosa 150 yil to'ldi. 2007 yilning aprel oyida esa Amir Nasrullohxonning Buxoro taxtiga o'tirganiga 180 yil bo'ldi. Mazkur ishda bu sanalarni keltirib o'tishdan asosiy maqsad Amir Nasrulloh shaxsiyatini ulug'lash yoki uning yubileylarini nishonlashga da'vat qilish bo'lmay, balki Vatan tarixshunosligida so'nggi yillarda tarixiy shaxslarning tavallud sanalari va boshqa ayyomlar bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-ommabop maqolalar kamayib ketayotganligi, xususan, tarixiy shaxslar va davlat arboblarning siyosiy qiyofasini ko'rsatadigan va davlatchilik qarashlarini aks ettiradigan tadqiqotlar deyarli yaratilmayotganligi, xullas, tarixda o'tgan davlat va siyosat arboblarning faoliyati yetarli darajada yoritilmayotganligi, mabodo shunday maqolalar va kitoblar yozilsa ham ular asosan Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk ajdodlarimizning faoliyatini ko'rsatish bilan cheklanib qolayotganligidan xavotirlik tuyg'usidir.

Adabiyotlar tahlili

Biz bugungi kunda Turkiston tarixida muayyan rol o'ynagan va o'zidan o'chmas iz qoldirgan barcha ajdodlarimiz, xususan, davlat arboblari va harbiy sarkardalar faoliyatini butun ziddiyatlari va murakkab tomonlari bilan chuqur o'rganishimiz, ularni targ'ib va tashviq qilishimiz, ular yo'l qo'ygan xatolardan saboq chiqarishimiz va yana shunday xatolarga yo'l qo'ymasligimiz, tarixda o'tgan ushbu shaxslarning har biriga baho berayotganda ajdodlarimiz shaxsiyati va faoliyatini

zamonasozlik qilmasdan, ular yashab o'tgan tarixiy sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holatda xolis baholashimiz lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Muammoga ana shu jihatdan obyektiv yondashganda Amir Nasrullohxon shaxsi XX-XXI asrlarda O'zbekiston tarixi fanida qay darajada yoritildi va yoritilmoqda? Muarrirlarimiz uning hayoti va siyosiy faoliyatini, davlatchilik sohasidagi qarashlarini yetarli darajada xolislik bilan ko'rsatib berishyaptimi? Ma'lumki, XX asr boshlarida Buxoroda amirlik tuzumi va mang'itlar sulolasi hukmronligiga qarshi keng miqyosdagi kurash, jadidchilik harakati va Yosh buxoroliklar partiyasining faoliyati natijasida, shuningdek, Rossiyada bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi va sovet Rossiyasining harbiy kuchlari bo'lgan qizil armiya jangchilari tomonidan Buxoro shahriga qilingan bosqin oqibatida 1920 yil 2 sentabrda Buxoroda amirlik tuzumi ag'darib tashlandi. Buxoroning ko'p ming yillik tarixida ilk marta demokratik tuzum-respublika davri boshlandi. Aynan ushbu davr qisqa muddat (atigi 4-5 yil) davom etgan bo'lishiga qaramasdan, bu yillar Buxoro tarixida muhim bosqichni tashkil etadi. Biroq shu davrdan boshlab yangi tuzum faollari bo'lgan Yosh buxorolik jadidlar o'zlarining yaqindi mahv etilgan g'animlari-mang'it amirlarini keskin tanqid qilishga kirishdilar. Bu ishning boshida taniqli adiblarimiz Ayniy va Fitrat turishdi. Yirik davlat arbobi Fayzulla Xo'jayev esa ularning g'oyaviy mafkurachisi hisoblangan. Bu holat 1925 yildan keyin, O'zbekiston SSR tuzilgach, ayniqsa, avj olib ketdi. Sadridin Ayniyning "Buxoro jallodlari" (1920), "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" (1920-1921; Moskva, 1926), "Tarixi amironi Mang'itiyai Buxoro" ("Buxoro Mang'it amirlari tarixi") (Toshkent, 1923) kabi tarixiy tadqiqotlari, "Qullar", "Doxunda" singari tarixiy romanlari va keyinchalik yozilgan "Esdaliklar" asarida, Fitratning "Amir Olimxonning hukmronlik davri" (Dushanbe, 1930) risolasida mang'itlar sulolasining butun "kirdikorlari" ochib tashlandi. Buxoro tarixining qariyb 200 yil davom etgan davri, mang'it hukmdorlari (amirlar) faoliyati faqat qora bo'yoqlarda tasvirlandi. Tanqid tig'i dastavval mang'itlar sulolasining so'nggi hukmdori Amir Sayyid Olimxon (1881-1944) ga qarshi qaratilganligi o'sha davrdagi siyosiy va harbiy vaziyatlar taqozosiga ko'ra normal hol hisoblanadi. Biroq barcha mang'it amirlarini, jumladan, Amir Nasrulloni asossiz ravishda qoralash jarayoni yoppasiga ommaviy kampaniyaga aylantirildi.

Tahlil va natijalar

Bu holat Qo'qon tarixnavislik maktabiga mansub jadid taraqqiyparvari Ishoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida ham o'zining yaqqol ifodasini topgan. Ibrat va Fitrat tomonidan Nasrullohxon "Botur qassob", "Qassobning botiri" degan mash'um nomlarga sazovor bo'ldi. Fitrat o'zining 1930 yili yozgan "Amir Olimxonning hukmronlik davri" nomli tarixiy risolasida barcha mang'it amirlari singari Amir Nasrullo faoliyatini ham faqat qoralash bilan shug'ullanadi. Fitratning ushbu asaridan quyidagi ixtibosni o'tmish o'rinli. "Amir Haydardan keyin uning o'g'li Amir Husayn taxtga o'tirdi, biroq ikki oyu necha kundan keyin u vafot etdi. Uning o'rnini amir Umar egalladi. Biroq amir Haydarning o'g'li amir Nasrullo o'zining birodariga qarshi lashkar tortib Buxoroni o'rab oldi va hukumatni o'z qo'liga oldi. Nasrullo oldin amir Umarni omon qoldirib, Buxorodan chiqarib yubordi, ammo o'z ahdiga vafo qilmay orqasidan jallodini yubordi. Jallod amir Umar boshini keltirdi.

Xulosa

Nasrullo o'zining boshqa aka-ukalarini ham turli hiylalar bilan o'ldirdi va Buxoro taxtiga hech qanday raqibsiz ega bo'ldi. Unga "qassobning botiri" laqabi berilgan edi". Alloma Fitratga nisbatan ehtirom va hurmatimz qanchalik baland bo'lmasin, bu asar bolsheviklarning maxsus buyurtmasi bilan yozilganligi uchun unda tarixiy haqiqatdan chekinilganligi, mang'it hukmdorlari faoliyatini baholashda sinfiy yondashuv ustun bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Х., Ғофуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маънавий-маърифий таълимотлар тараққиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001.
2. Маннонов Б. Ўзбек дипломатияси тарихи. – Тошкент: ЖИДУ, 2003.
3. Ражабов Қ. Насруллоҳхон. Тошкент, "Абу Матбуот-Консалт", 2011.